

---

## KULGULARING DUNYONI TUTSIN, BOLAJON!

1 iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni butun dunyo bolalari uchun eng beg'ubor va quvonchli bayram hisoblanadi.

Bola kulsa, dunyo kuladi. Uning beg'ubor chehrasidagi tabassumi, shirin qahqahasida hayotimiz, umrimiz ma'nosi bor. Ko'zlarida ezgulik va mehr qalqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldirg'och misolidir.

Bugungi shodiyona munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida karantin qoidalariga qa'tiy amal qilgan xolda ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'rtasida yugurish, maktab yoshidagi bolajonlar o'rtasida shashka musobaqalari tashkil etildi. Tadbir so'ngida g'olib bolajonlar taqdirlandilar.



2020-06-01 18:01:04